

Sirdaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim

2025/2026- o'quv yili boshiga


- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

Sirdaryo viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirilgan: professional maktablar va kollejlarda texnikumlar, shuningdek, maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni

(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni **3 tani** tashkil etgan va so'nggi besh yil davomida o'zgarishsiz qolgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Texnikumlar soni esa, aksincha, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **2,6 barobarga**, yoki **16 taga** oshgan va 2025/2026- o'quv yili boshiga **26 tani** tashkil etgan. Mazkur o'zgarishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarining maqbullashtirilganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ilgari o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy sonida hisobga olingan professional maktablar va kollejlarda texnikumlar hamda boshqa ta'lim tashkilotlariga aylantirilgan.

**Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar		Texnikumlar	
	Jami	umumiy soniga nisbatan % da	Jami	umumiy soniga nisbatan % da
• Sirdaryo viloyati	3	100,0	26	100,0
• Guliston sh.	1	33,4	7	27,0
• Shirin sh.	-	-	1	3,8
• Yangiyer sh.	-	-	2	7,7
Tumanlar:	-	-		
• Oqoltin	-	-	2	7,7
• Boyovut	-	-	2	7,7
• Sayxunobod	-	-	2	7,7
• Guliston	-	-	2	7,7
• Sardoba	-	-	1	3,8
• Mirzaobod	1	33,3	1	3,8
• Sirdaryo	1	33,3	4	15,4
• Xovos	-	-	2	7,7

Akademik litseylar Guliston shahri (1 ta), Mirzaobod (1 ta) va Sirdaryo (1 ta) tumanlarida kuzatilgan. Hamda texnikumlar soni bo'yicha Guliston shahri (7 ta), Sirdaryo tumani (4 ta) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Texnikumlar soni bo'yicha ham Shirin shahri (1 ta), Sardoba (1 ta) va Mirzaobod (1 ta) tumanlari eng past ko'rsatkichga ega bo'lganlar.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari (jami)
Akademik litseylar soni

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha umumiy o'sish kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **1,8 ming nafarga**, yoki **23,0 % ga** oshgan va **7,8 ming nafarni** tashkil etgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,1 ming nafarga**, yoki **25 % ga** oshgan va **0,5 ming nafarni** tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgan tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa oldingi o'quv yiliga nisbatan 1,9 ming nafarga, yoki 35,2 foizga oshgan va 7,3 ming nafarga yetgan..

**Qabul qilingan o'quvchilar
sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
• Sirdaryo viloyati	0,5	0,2	0,3	7,3	3,4	3,9
• Guliston sh.	0,1	0,07	0,03	1,6	1,1	0,5
• Shirin sh.	-	-	-	0,4	0,1	0,3
• Yangiyer sh.	-	-	-	0,5	0,4	0,1
Tumanlar:						
• Oqoltin	-	-	-	0,7	0,3	0,4
• Boyovut	-	-	-	0,5	0,1	0,4
• Sayxunobod	-	-	-	0,6	0,2	0,4
• Guliston	-	-	-	0,6	0,2	0,4
• Sardoba	-	-	-	0,3	0,1	0,2
• Mirzaobod	0,2	0,1	0,1	0,3	0,1	0,2
• Sirdaryo	0,2	0,03	0,17	1,3	0,7	0,6
• Xovos	-	-	-	0,5	0,1	0,4

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilarning yuqori soni **Mirzaobod** tumani (0,2 ming nafar)da qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori qismi esa **Guliston** shahri (1,6 ming nafar), **Sirdaryo** tumani (1,3 ming nafar) va **Oqoltin** tumani (0,7 ming nafar)da kuzatilgan.

Akademik litseylarga qabul qilinganlar sonining past ko'rsatkichi **Guliston** shahri (0,1 ming nafar)da qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilar sonining eng past ko'rsatkichlari **Sardoba** (0,3 ming nafar), **Mirzaobod** (0,3 ming nafar) va **Shirin** shahri (0,4 ming nafar)da kuzatilgan.

Mirzaobod tumanida akademik litseylarga qabul qilingan o'g'il bolalar va qiz bolalar ulushi teng bo'lib, har biri 50,0 % ni tashkil etgan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Sirdaryo viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar umumiy sonining o'sishi kuzatilgan. 2025/2026 o'quv yili boshiga ularning soni 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan 2,3 ming nafarga, ya'ni 20,9 % ga oshgan va 13,3 ming nafarni tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni ¹⁾
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026 o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni 0,8 ming nafarni tashkil etgan va 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan o'zgarmagan. 2025/2026 o'quv yili boshiga texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni 12,5 ming nafarni tashkil etgan va 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan 2,3 ming nafarga, yoki 22,5 % ga oshgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi

(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

Akademik litseylar			Texnikumlar		
jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

• Sirdaryo viloyati	0,8	0,3	0,5	12,5	6,3	6,2
• Guliston sh.	0,2	0,1	0,1	2,7	2,2	0,5
• Shirin sh.	-	-	-	0,7	0,1	0,6
• Yangiyer sh.	-	-	-	0,9	0,8	0,1
Tumanlar:						
• Oqoltin	-	-	-	1,0	0,4	0,6
• Boyovut	-	-	-	1,0	0,2	0,8
• Sayxunobod	-	-	-	1,0	0,3	0,7
• Guliston	-	-	-	1,0	0,4	0,6
• Sardoba	-	-	-	0,6	0,2	0,4
• Mirzaobod	0,3	0,1	0,2	0,4	0,1	0,3
• Sirdaryo	0,3	0,1	0,2	2,1	1,2	0,9
• Xovos	-	-	-	1,1	0,4	0,7
• Sirdaryo viloyati						

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning yuqori soni Mirzaobod tumani (**0,3 ming**) qayd etilgan. Texnikumlardagi o'quvchilarning eng yuqori soni esa Guliston shahrida (**2,7 ming**), Sirdaryo tumanida (**2,1 ming**) va Xovos (**1,1 ming**) tumanida kuzatilgan. Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning past soni Guliston shahrida (**0,2ming**) qayd etilgan. Texnikumlarda eng past ko'rsatkichlar Mirzaobod tumanda (**0,4ming**), Sardoba (**0,6 ming**) hamda Shirin shahrida (**0,7 ming**) tumanlarida kuzatilgan.

Akademik litseylarda o'qiyotgan qiz bolalarning past ulushi Guliston shahri (**33,3 %**) va Sirdaryo tumanida (**33,3 %**) qayd etilgan.

Texnikumlar bo'yicha esa Guliston shahri (**81,4 %**), Sirdaryo tumani (**57,1 %**) va Yangiyer shahri (**88,8 %**) tumanlarida o'qiyotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Shirin shahri (**14,3 %**) va Boyovut tumani (**20,0 %**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


O'rtta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni (jami)

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (jami)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

Sirdaryo viloyatida 2025 yilda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari umumiy soni 4,2 ming nafarni tashkil etgan va 2024 yilga nisbatan 0,4 ming nafarga, ya'ni 8,7 % ga qisqargan..

Bitiruvchilar soni ¹⁾
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025 yilda akademik litseylarning bitiruvchilari soni 0,4 ming nafarni tashkil etgan va 2024 yilga nisbatan o'zgarmagan .Texnikumlarning bitiruvchilari soni esa 3,8 ming nafarni tashkil etgan va 2024 yilga nisbatan 0,4 ming nafarga, ya'ni 9,5 % ga qisqargan..

Bitiruvchilar sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2025- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
• Sirdaryo viloyati	0,4	0,1	0,3	3,8	1,6	2,2
• Guliston sh.	0,1	0,05	0,05	0,4	0,1	0,3
• Shirin sh.	-	-	-	0,2	-	0,2
• Yangiyer sh.	-	-	-	0,3	0,2	0,1
Tumanlar:						
• Oqoltin	-	-	-	0,2	0,1	0,1

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

• Boyovut	-	-	-	0,3	0,1	0,2
• Sayxunobod	-	-	-	0,4	0,1	0,3
• Guliston	-	-	-	0,4	0,2	0,2
• Sardoba	-	-	-	0,2	0,1	0,1
• Mirzaobod	0,1	0,05	0,05	0,2	0,1	0,1
• Sirdaryo	0,2	0,1	0,1	0,8	0,5	0,3
• Xovos	-	-	-	0,4	0,1	0,3

Akademik litseylar bitiruvchilarining yuqori qismi Sirdaryo tumanida (**0,2 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng yuqori soni esa Sirdaryo tumanida (**0,8 ming nafar**), Xovos tumanida, Guliston tumanida, Sayxunobod tumanida va Guliston shahri (har bir tumanda **0,4 ming nafardan**) kuzatilgan. Akademik litseylar bitiruvchilarining past ko'rsatkichlari Mirzaobod tumanida (**0,05 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari esa Shirin shahri, Oqoltin va Sardoba (har bir tumanda **0,2 ming nafardan**) hamda Boyovut tumanlarida (**0,3 ming nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Akademik litseylarning bitiruvchilari soni (jami)

Akademik litseylarning bitiruvchilari soni (qiz bolalar)

Akademik litseylarning bitiruvchilari soni (o'g'il bolalar)


V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026 o'quv yili boshiga Sirdaryo viloyatining o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) umumiy soni 914 nafarni tashkil etgan va 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan 98 nafarga, ya'ni 12,0 % ga oshgan.


Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni¹⁾

(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)

Akademik litseylar



Texnikumlar 1)



¹⁾O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

2025/2026 o'quv yili boshiga akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni 77 nafarni tashkil etgan va 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan 3 nafarga, ya'ni 3,8 % ga qisqargan. Shuningdek, texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining o'sishi kuzatilgan. Ularning soni 837 nafarni tashkil etgan va 2024/2025 o'quv yiliga nisbatan 101 nafarga, ya'ni 13,7 % ga oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, kishi)

Akademik litseylar			Texnikumlar		
jami	ayollar	erkaklar	jami	ayollar	erkaklar

• Sirdaryo viloyati	77	34	43	837	446	391
• Guliston sh.	19	14	5	257	150	107
• Shirin sh.	-	-	-	37	12	25
• Yangiyer sh.	-	-	-	47	36	11
Tumanlar:						0
• Oqoltin	-	-	-	50	26	24
• Boyovut	-	-	-	81	29	52
• Sayxunobod	-	-	-	51	33	18
• Guliston	-	-	-	101	58	43
• Sardoba	-	-	-	35	17	18
• Mirzaobod	26	8	18	20	12	8
• Sirdaryo	32	12	20	91	50	41
• Xovos	-	-	-	67	23	44

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining yuqori ko'rsatkichi Sirdaryo shahrida (**32 nafar**) qayd etilgan. Texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichlari esa Guliston shahri (**257 nafar**), Guliston tuman (**101 nafar**) va Boyovut (**81 nafar**) tumanlarida kuzatilgan. Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining past ko'rsatkichlari Guliston shahri (**19 nafar**) va Mirzaobod (**26 nafar**) tumanlarida qayd etilgan. Texnikumlarda esa eng past ko'rsatkichlar Mirzaobod (**20 nafar**), Sardoba (**35 nafar**) va Shirin sh (**37 nafar**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda,

davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Sirdaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar **1 o'rta ta'lim shakli** "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining hisoboti" yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining statistika hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni, shuningdek, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar viloyat va tumanlar (shahar) kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO-2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 120100, Guliston sh, Birlashgan
ko'chasi, 62-uy Pochta: info@sirstat.uz
Tel.: 67-236-70-00 Ichki: 21-00

